

JAMIYATDAGI IJTIMOIIY ILLATLAR VA ULARNING YECHIMIGA DOIR AYRIM MULOHAZALAR

MUSTAFAYEV ULASH UTAYEVICH

falsafa fanlari nomzodi, dotsent

ulashmustafoev1957@gmail.com

[+998 90 076 95 57](tel:+998900769557)

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada jamiyatda kuzatilayotgan ijtimoiy illatlar - axloqiy buzqlik, ajrimlar, befarqlik, ishsizlik, jinoyatchilik, giyohvandlik va ma'naviy tanazzul kabi hodisalarning mohiyati hamda ularning kelib chiqish sabablari tahlil qilingan. Muallif ijtimoiy illatlarning asosiy ildizini oilaviy tarbiya va ma'naviy qadriyatlarning zaiflashuvida deb baholaydi. Maqolada ijtimoiy muammolarning yechimi sifatida sog'lom oila muhitini yaratish, nikoh institutining ahamiyatini oshirish, yoshlarni ma'naviy va axloqiy jihatdan yetuk qilib tarbiyalash, shuningdek, ta'lim tizimi va mahalla institutlari o'rtasida hamkorlikni kuchaytirish zarurligi asoslab berilgan. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, mustahkam oila va sog'lom ma'naviy muhit ijtimoiy illatlarning oldini olishda eng muhim omil hisoblanadi. Maqola jamiyatda ma'naviy poklikni mustahkamlash, oila institutini rivojlantirish va yoshlar ongida sog'lom hayot falsafasini shakllantirishga qaratilgan ilmiy-amaliy xulosalar bilan yakunlanadi.

Kalit so'zlar: *ijtimoiy illatlar, oila, nikoh, ma'naviyat, tarbiya, yoshlar, jamiyat, axloqiy qadriyatlar, ajrimlarning oldini olish.*

ABSTRACT

This article analyzes the nature and causes of social vices observed in society, such as moral degradation, divorces, indifference, unemployment, crime, drug addiction, and spiritual decline. The author identifies the weakening of family upbringing and moral values as the main roots of these problems. The paper emphasizes that creating a healthy family environment, strengthening the institution of marriage, fostering moral and ethical maturity among youth, and enhancing cooperation between the education system and community institutions are key solutions to these social issues. The results of the study show that a strong family and a sound moral atmosphere are the most important factors in preventing social vices. The article concludes with practical and scientific recommendations aimed at strengthening moral purity in society, developing the family institution, and shaping a healthy life philosophy among young people.

Keywords: social vices, family, marriage, morality, upbringing, youth, society, ethical values, prevention of divorce.

АННОТАЦИЯ

В данной статье анализируются сущность и причины социальных пороков, наблюдаемых в современном обществе, таких как моральное разложение, разводы, безразличие, безработица, преступность, наркомания и духовный упадок. Автор рассматривает ослабление семейного воспитания и утрату моральных ценностей как основные корни этих проблем. В работе подчеркивается, что создание здоровой семейной среды, укрепление института брака, формирование нравственной и духовной зрелости у молодежи, а также развитие сотрудничества между системой образования и институтами махалли являются ключевыми путями решения социальных проблем. Результаты исследования показывают, что крепкая семья и здоровая духовно-нравственная атмосфера являются важнейшими факторами профилактики социальных пороков. Статья завершается научно-практическими рекомендациями, направленными на укрепление нравственной чистоты в обществе, развитие института семьи и формирование у молодежи здоровой жизненной философии.

Ключевые слова: социальные пороки, семья, брак, мораль, воспитание, молодежь, общество, нравственные ценности, профилактика разводов.

KIRISH (VEDENIE / INTRODUCTION)

Jamiyatni ijtimoiy illatlardan xalos qilish v adolatli ijtimoiy tizim yaratish insoniyatning azaliy orzusidir. Inson yaratilibdiki, uning turmush tarzida ijtimoiy illatlar uchrab turibdi. Ibrohim dinlariga ko'ra xudo odamni miloddan avvalgi 4026 yilning kuz oylarida yaratgan deyiladi. Musulmonlar Odam Atoni birinchi yaratilgan inson va payg'mbar deb biladi. Odam so'zi ibroniycha "qizil yer" degan ma'no beradi. Odam Ato va Momo Havvo er yuzidagi birinchi oila edi. Ular Iblis vasvasasiga ilinib yorug' jannatdan ayrildi. Ularning farzandlari Qobil va Hobil edi. Ular ham o'sha davr shariat qoidalariga amal qilmaganligi uchun birinchi jinoyat sodir bo'lgan edi.

Shundan buyon diniy va dunyoviy ilm odamlari jamiyatdagi shu singari illatlarga qarshi kurashib asarlar yozib, nazariy g'oyalarni targ'ib qilib kelmoqda.

Ijtimoiy illat nima o'zi va unga ilmiy adabiyotlarda qanday ta'riflar beriladi? Illat jamiyat qabul qilgan me'yorlarning buzilishidir. U jamiyatda gunoh yoki ayb yoki jinoyat sifatida namayon bo'ladi. "Bo'ynida illati borning oyog'i qaltiraydi"- degan xalq maqoli bejiz aytilmagan. Shu o'rinda shoir Sadriddin Salim Buxoriyning

“Illat izlaganga illatdir dunyo, G’urbat izlaganga g’urbatdir dunyo, Kim neni izlasa topgay begumon, Hikmat izlaganga hikmatdir dunyo.”¹ she’riy misralari globallashuv davrida hammamizni hushyorlikka chorlaydigan hikmatdir.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METOD (LITERATURA I METOD / LITERATURE REVIEW)

Qur’oni karimning jamiyat, oila, inson, axloq va ilm, aql, tafakkur, ibratga oid sura va oyatlaridagi hikmatli mo’jizaviy fikrlar jamiyatdagi illatlarning oldini olishda muhim ahamiyatga ega.”Darhaqiqat, (Biz) Odam farzandlarini (aziz va) mukarram qildik va ularni quruqlik va dengizga (ot-ulov va kemalarga)mindirib qo’ydik hamda ularga pok narsalardan rizq berdik va ularni O’zimiz yaratgan ko’p jonzotlardan afzal qilib qo’ydik”².

Illatlarning oldini olishda jamiyatda odamlarni odobga chaqirish eng muhim vosita sanaladi. Bu yaxshilikka da’vatdir. Halq tilida “palagi toza” degan ibora ko’p ishlatiladi. Demak,kishilarning fazilati nasl-nasab bilan emas, balki odobi bilan topiladi. Bugun har bir kishi avvalo o’z kasbini mahorat billan egallashi, oilada yaxshi tarbiya va odob olishi davrning dolzarb muammosiga aylandi.

“Odob ikkiga: nazariy va amaliy jihatga bo’linadi.Odob oldin nazariy jihatdan o’rganiladi va keyin unga amal qilinadi”³.Jamiyatdagi ijtimoiy illatlarga ijtimoiy immunitetni hosil qilishga shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yuufning “Ijtimoiy odoblar” kitobi muhim ahamiyatga ega asardir.

NATIJALAR (REZULTATY / RESULTS)

O’rganilga statistik tahlillar va olib borilgan kuzatuvlar jamiyatdagi ijtimoiy illatlar - ya’ni befarqlik, ajrimlar, axloqiy buzilish, jinoyatchilik, giyohvandlik, ishsizlik va ma’naviy bo’shliq kabi hodisalar - o’zaro chambarchas bog’liq ekanligini ko’rsatdi. Ushbu illatlarning ildizi, asosan, oilaviy tarbiya zaiflashuvi, ma’naviy qadriyatlarga beparvolik, hamda ijtimoiy nazoratning sustlashuvida namoyon bo’lmoqda. Natijalar shuni ko’rsatadiki, jamiyatda ijtimoiy illatlarning oldini olish uchun eng samarali yo’l - bu sog’lom va mustahkam oilaviy muhitni shakllantirishdir. Nikohga jiddiy tayyorgarlik, oila institutining nufuzini oshirish, yoshlarni ma’naviy va psixologik jihatdan yetuk qilib tarbiyalash orqali ko’plab salbiy illatlarning ildizi kesiladi. Tahlillar shuningdek, diniy va ma’naviy qadriyatlarni chuqur anglash, oilada o’zaro hurmat va ishonchni mustahkamlash, ta’lim tizimida “Tarbiya” fanining sifat va samaradorligini kuchaytirish ijtimoiy muhitni sog’lomashtirishda ijobiy natijalar

¹ Sadriddin Salim Buxoriy. Hikmatdir dunyo.T:..G’afur G’ulom nasriyoti 2011 yil. 356 b.

² Qur’oni Karim ma’nolarinig tarjima va tafsiri.Shayx Abdulaziz Mansur.O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Toshkent islom universiteti:T:.”TIU”,2018 624 b.

³ Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf Ijtimoiy odoblar. “Hilol-Nashr”nashriyoti.Toshkent-2024.455 b.

berishini ko'rsatishi tabiiy. Jamiyatda ajrimlar sonining kamayishi, oilaviy mas'uliyatning oshishi, yoshlar orasida mehnatsevarlik va halollik qadriyatlarining kuchayishi — ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashning asosiy belgilaridan biri bo'lib chiqdi. Shunday ekan, oila institutini mustahkamlash, nikohning muqaddasligini targ'ib etish va yoshlarni to'g'ri hayotiy yo'lga yo'naltirish ijtimoiy illatlarning yechimida hal qiluvchi omil sifatida e'tirof etiladi.

MUHOKAMA (OBSUJDENIE / DISCUSSION)

Ijtimoiy turmushda shunday bir illatlar borki u insonni oiladan begonalashtirib jamiyat va davlat oldida burch va ma'suliyatdan uzoqlashtirib qo'yadi. Milliy va diniy qadriyatlarga nisbatan hurmatsizlikni shakllantiradi. Davlat mavjud bo'lishi uchun birinchi tamoiyili unung hududi bo'lishi shart bo'lsa, ikkinchi tamoiyili bu o'sha hududda yashayotgan millat va xalqlarning ruhiy-psixologik birligi bo'lishi lozim. Ruhiy-psixologik birlik bu qadriyatlar bilan bog'liqdir. Qadriyatlarni moddiy va ma'naviy qadriyatlarga ajratamiz. Ma'naviy qadriyatlarning eng oliyi bu nikohdir. Hikoh dunyoviy va diniy kitoblarda ham ulug'langan. "Nikoh O'zbekiston xalqining an'anaviy oilaviy qadriyatlariga, nikohlanuvchilarning ixtiyoriy roziligiga va teng huquqliligiga asoslanadi"⁴. Nikoh fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish organlarida tuziladi. Diniy rasm-rusumlarga binoan tuzilgan nikoh huquqiy ahamiyatga ega emas."⁵ Islom dini ham nikohga alohida e'tibor beradi. Nikoh islom dini amali bo'lib, qat'iy tavsiya etilgan amaldir. Bu haqda qur'oni karimda "Xotinlarga mahrlarini mamnunlik bilan beringiz! Agar sizlarga o'zlari undan biror narani ixtiyoriy ravishda kechsa(bersa)lar, sizlar uni bemalol, ishtaha bilan tanovul qilaveringiz"⁶. Yosh oilalar o'rtasida ajrimlarning oldini olish - jamiyat barqarorligi va sog'lom ijtimoiy muhitni ta'minlash juda muhim masaladir. Quyidagi omillar bu jarayonda asosiy ahamiyatga ega: 1. Oilaviy madaniyat va psixologik tayyorgarlik. Demak, Nikohdan oldin yoshlarda oilaviy hayotga psixologik, axloqiy va iqtisodiy tayyorgarlik bo'lishi zarur. Oila qurish faqat muhabbatga emas, mas'uliyat va murosaga madaniyatiga ham asoslanishi kerak. Yoshlarga konfliktlarni boshqarish, murosaga kelish ko'nikmalarini o'rgatish foydali. 2. Sog'lom muloqot va o'zaro hurmat. Ajrimlarning aksariyati muloqot yetishmasligi yoki noto'g'ri muomala tufayli kelib chiqadi. Oila a'zolari bir-birining fikrini tinglash, tushunish va hurmat qilishni o'rganishlari zarur. "Haqqoniy, lekin muloyim" muloqot oilani mustahkamlaydi. 3.

⁴ O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi III bo'lim, XIV bob. 76-modda. 2-abzats. "O'zbekiston" T.: -2023 43 b.

⁵ O'zbekiston Respublikasining Oila kodeksi. II bo'lim, 3-bob 13-modda. 2021 yil. <https://lex.uz/mact/-104720>

⁶ Qur'oni Karim ma'nolarinig tarjima va tafsiri. Shayx Abdulaziz Mansur. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Toshkent islom universiteti: T.: "TIU", 2018. Niso surasi 4-oyat, 77 b

Iqtisodiy barqarorlik. Moliyaviy muammolar yosh oilalarda eng ko‘p kelishmovchilik sababidir. Shu bois, iqtisodiy savodxonlik, rejali byudjet yuritish, va mehnatga munosabat muhim rol o‘ynaydi. Oila byudjeti ustidan ochiq va ishonchli nazorat bo‘lishi kerak. 4. Mehr, sadoqat va ishonch. Har qanday oilaning poydevori - ishonch va sadoqat. Sheriklardan biri xiyonat, befarqlik yoki sovuqqonlik ko‘rsatsa, oila mustahkam bo‘la olmaydi. Ishonchni mustahkamlovchi odatlar: birgalikda vaqt o‘tkazish, e‘tibor, samimiylik. 5.Ma’naviy va milliy- diniy qadriyatlarga tayanish. O‘zbek xalqining oilaviy an‘analari, dini va ma’naviy qadriyatlari oila mustahkamligining asosidir. Nikohga sadoqat, ota-onaga hurmat, sabr va kechirimlilik -ajrimlarning oldini oluvchi eng kuchli omillar. 6.Kattalarning va jamiyatning qo‘llab-quvvatlashi. Ota-onalar, mahalla, diniy idora, psixologlar va ijtimoiy xizmatlarning maslahat va yo‘l-yo‘riqlari yosh oilalar uchun zarur.7. Oila qadriyatlarini targ‘ib qilish. OAVda (televideniye, internetda) sog‘lom oila namunalarini ko‘rsatish ham katta ta’sir ko‘rsatadi. Statistik tahlillar bu sohada juda ko‘p mehnat qilishni talab qilishi sezilmoqda. <https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/demography-2> ning tahliliga e‘tibor berish kerak bo‘ladi.

Tuzilgan nikohlar soni

(2020-2024 yillar)

Respublika/viloyat	2020	2021	2022	2023	2024
O‘zbekiston	141605	149173	149096	139741	136713
Surxondaryo	8602	9265	9258	8478	7966
Qashqadaryo	12942	12521	12991	12471	11751

Nikohdan ajralganlar soni

(2020-2024 yillar)

Respublika/viloyat	2020	2021	2022	2023	2024
O‘zbekiston	28233	39349	48733	49198	45135
Surxondaryo	1600	2264	2804	3047	2893
Qashqadaryo	2010	2867	3471	3376	2989

Nikoh devalvatsiyasi

(% da)

(2020-2024 yillar)

Respublika/viloyat	2020	2021	2022	2023	2024
O‘zbekiston	19,9	26,3	32,6	35,2	33,3
Surxondaryo	18,6	24,4	30,2	35,9	36,3
Qashqadaryo	15,5	22,8	26,7	27,0	25,4

Erta nikohlar soni

(Surxondaryo viloyati)

Tuman/shaharlar	2020	2021	2022	2023	2024
Termiz shahri	0	2	0	0	0
Oltinsoy	0	0	0	0	1
Angor	2	1	0	2	0
Bandixon	1	1	0	0	1
Boysun	0	0	0	1	1
Muzrabod	2	1	1	0	1
Denov	2	2	4	2	3
Jarqo'rg'on	0	1	3	0	0
Qumqo'rg'on	0	0	1	1	0
Qiziriq	2	1	1	0	0
Sariosiyo	6	11	5	2	0
Termiz tumani	1	1	0	0	0
Uzun	4	2	6	2	1
Sherobod	1	0	0	0	1
Sho'rchi	0	3	0	0	0
Jami	21	26	21	10	10

Yosh oilalar o'rtasida ajrimlarning oldini olish jarayoni - ijtimoiy illatlarning oldini olishga bevosita xizmat qiladi. Uni quyidagicha izohlash mumkin:

Barqaror oila – barqaror jamiyat. Oila – jamiyatning eng kichik, lekin eng muhim bo'g'ini. Agar oilalar mustahkam bo'lsa, jamiyatda beqarorlik, jinoyatchilik, befarqlik va axloqiy buzilishlar kamayadi. Mustahkam oila – sog'lom avlodni tarbiyalaydi.

Ajrimlar – bolalarda ruhiy muammolar manbai. Ajrim natijasida ota yoki onadan ajralgan bolalar ko'pincha ruhiy bosim, yolg'izlik, tajovuzkorlik yoki beqaror xulq bilan o'sadi. Bunday bolalarda kelajakda jinoyatchilik, giyohvandlik, ichkilikbozlik kabi illatlarga moyillik ortadi. Shuning uchun oilani saqlash – yosh avlodni ijtimoiy illatlardan himoya qilish demakdir.

Sog'lom oila – sog'lom muloqot madaniyati. Ajrimlarning kamayishi bilan jamiyatda hurmat, bag'rikenglik, sabr-toqat qadriyatlari kuchayadi. Bu esa mojarolarni tinch yo'l bilan hal qilish, ijtimoiy totuvlikni ta'minlashga olib keladi.

Iqtisodiy va ma'naviy barqarorlikni mustahkamlaydi. Ajrimlardan keyin ko'p hollarda ayollar va bolalar moddiy qiyinchilikka uchraydi, bu esa qashshoqlik,

ishsizlik, ijtimoiy tanglikni kuchaytiradi. Mustahkam oilalar esa mehnatsevarlik, tejamlilik, mas'uliyatlilik fazilatlarini rivojlantirib, jamiyatning umumiy farovonligini oshiradi.

Axloqiy buzuqlik, befarqlik va zo'ravonlikning kamayishiga olib keladi. Ajrimlarning oldini olish orqali axloqiy buzilish, oilaviy zo'ravonlik, beparvolik kabi illatlar kamayadi. Chunki sog'lom oila – ma'naviyat va tarbiyaning asosiy manbai.

XULOSA (ZAKLYUCHENIE / CONCLUSION)

Jamiyatning ma'naviy va ijtimoiy barqarorligini ta'minlovchi eng muhim institutlardan biri - bu oila va nikohdir. Nikoh faqat ikki inson o'rtasidagi shartnoma emas, balki jamiyatda axloqiy qadriyatlar, o'zaro hurmat, mas'uliyat va sadoqatni shakllantiruvchi muqaddas rishtadir. Shu bois, mustahkam oila - sog'lom jamiyatning asosi, ajrim esa aksincha, ko'plab ijtimoiy illatlarning manbai hisoblanadi.

Bugungi kunda ajrimlar, oilaviy nizolar, befarqlik va ma'naviy sovuqlik kabi holatlar jamiyatda ayrim illatlarning kuchayishiga sabab bo'lmoqda. Ajrim natijasida bolalar e'tiborsiz qoladi, ularning ruhiy holati izdan chiqadi, bu esa keyinchalik jinoyatchilik, giyohvandlik, axloqiy buzilish kabi illatlarning paydo bo'lishiga zamin yaratadi. Shunday ekan, nikohga jiddiy tayyorgarlik ko'rish, oila qurish mas'uliyatini chuqur his etish, yoshlarni oilaviy hayot madaniyatiga o'rgatish bugungi kunning dolzarb vazifasidir.

Mustahkam nikohni ta'minlashda ota-onalar, ta'lim muassasalari, diniy va jamoat tashkilotlari o'zaro hamkorlikda ishlashi zarur. Yosh oilalarga ma'naviy, psixologik va huquqiy maslahatlar berish, ularni sabr, kechirim, murosa va ishonch ruhida tarbiyalash — ajrimlarning oldini olishning eng samarali yo'lidir.

Xulosa qilib aytganda, sog'lom nikoh va mustahkam oila jamiyatdagi ijtimoiy illatlarning oldini oluvchi eng qudratli qalqondir. Har bir inson oilaviy qadriyatlarga sadoqatli bo'lib yashasa, jamiyatda mehr-oqibat, totuvlik va barqarorlik hukm suradi. Mustahkam nikoh – bu nafaqat ikki insonning baxti, balki butun xalqning ma'naviy yuksalishidir.

ADABIYOTLAR RO'YXATI (ISPOLZOVANNAYA LITERATURA / REFERENCES)

1. Sadridin Salim Buxoriy. Hikmatdir dunyo.T:...G'afur G'ulom nasriyoti 2011 yil. 356 b.
2. Qur'oni Karim ma'nolarinig tarjima va tafsiri.Shayx Abdulaziz Mansur.O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Toshkent islom universiteti:T:."TIU",2018 624 b.

3. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf Ijtimoiy odoblar. “Hilol-Nashr” nashriyoti. Toshkent-2024. 455 b.
4. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi III bo‘lim, XIV bob. 76-modd. 2-abzats. “O‘zbekiston” T.: -2023 43 b.
5. O‘zbekiston Respublikasining Oila kodeksi. II bo‘lim, 3-bob 13-modd. 2021 yil. <https://lex.uz/mact/-104720>
6. Qur’oni Karim ma’nolarinig tarjima va tafsiri. Shayx Abdulaziz Mansur. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Toshkent islom universiteti: T.: “TIU”, 2018. Niso surasi 4-oyat, 77 b
7. <https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/demography-2>